



XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYAT KENGASHI Q A R O R I

2022 - yil 7 - yanvar

VI-38-1-4-0-K/22

Qashqadaryo viloyati hokimligi

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida iqtisodiy ijtimoiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrda “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 6121-sonli Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (06/04-01-32-son) va Davlat soliq qo‘mitasining (19/10-68220-son) 2021-yil 8-noyabrda qo‘shma xatiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar, Qashqadaryo viloyatida 2022-yilda:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari uchun yuridik shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan yer solig‘i stavkasi miqdori 1-ilovaga muvofiq;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari uchun jismoniy shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan yer solig‘i (dehqon xo‘jaligi yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlardan tashqari) stavkasi miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-6121-son farmoni bilan, hudud joylashuvidan kelib chiqib xalq deputatlari tuman va shaharlar Kengashlariga 1-2-ilovalar bilan belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llab er solig‘i stavkalarini belgilash huquqi berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Viloyat hokimligi axborot xizmati rahbari – matbuot kotibi (A.Sodiqov), mazkur qarorni viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga hamda “Lex.uz” O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi R.Raupov hamda viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari N.Erkayev zimmasiga yuklansin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya Raisi



Ravshanov O. P.

Халқ депутатлари Қашқадарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 7 январдаги
VI-38-1-4-0-К/22-сон қарорига
1-илова

**Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun
2022-yilda yuridik shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan yer solig‘i stavkalari
miqdori**

T/R	Hududlar nomi	Kamaytiruvchi va oshiruvchi stavka
1.	Qarshi shahar	1,10
2.	Shahrisabz shahar	1,10
3.	G‘uzor tumani	1,00
4.	Dehqonobod tumani	1,00
5.	Qamashi tumani	1,00
6.	Qarshi tumani	1,00
7.	Koson tumani	1,00
8.	Kitob tumani	1,00
9.	Muborak tumani	1,00
10.	Nishon tumani	1,00
11.	Kasbi tumani	1,00
12.	Chiroqchi tumani	1,00
13.	Shahrisabz tumani	1,00
14.	Yakkabog‘ tumani	1,00
15.	Mirishkor tumani	1,00

Халқ депутатлари Қашқадарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 7 январдаги
VI-38-1-4-0-К/22-сон қарорига
2-илова

**Qashqadaryo viloyatida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun
2022-yilda jismoniy shaxslarga nisbatan qo‘llaniladigan yer solig‘i
(dehqon xo‘jaligi yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun
mo‘ljallanmagan yerlardan tashqari) stavkalar miqdori**

T/R	Hududlar nomi	Kamaytiruvi va oshiruvchi stavka
1.	Qarshi shahar	1,10
2.	Shahrisabz shahar	1,10
3.	G‘uzor tumani	1,00
4.	Dehqonobod tumani	1,00
5.	Qamashi tumani	1,00
6.	Qarshi tumani	1,00
7.	Koson tumani	1,00
8.	Kitob tumani	1,00
9.	Muborak tumani	1,00
10.	Nishon tumani	1,00
11.	Kasbi tumani	1,00
12.	Chiroqchi tumani	1,00
13.	Shahrisabz tumani	1,00
14.	Yakkabog‘ tumani	1,00
15.	Mirishkor tumani	1,00

Халқ депутатлари Қашқадарё
вилоят Кенгашининг
2022 йил 7 январдаги
VI-38-1-4-0-К/22-сон қарорига
3-илова

Коррупциявий омилларни аниқлаш бўйича

ЧЕКЛИСТ

Йўналишлар	Коррупциявий омиллар	Жавоблар			Коррупциявий омил мавжуд норма ва унинг асоси
Нормаларнинг барқарорлиги ва ҳуқуқий мувофиқлиги билан боғлиқ коррупциявий омиллар	Сўзларнинг нотўғри қўлланилиши		йўқ		
	Ноаниқ ва асоссиз ҳаволалар келтирилганлиги		йўқ		
	Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ўртасида зиддиятларнинг мавжудлиги		йўқ		
Ваколатлар, ҳуқуқ ва мажбуриятлар билан боғлиқ коррупциявий омиллар	Дискрецион ваколатларнинг кенглиги		йўқ		
	Аниқ белгиланмаган ваколатлар		йўқ		
	Давлат органларининг такрорловчи ваколатлари ва вазифаларнинг мавжудлиги		йўқ		
	Давлат органи томонидан ўзининг ваколатига кирмайдиган масалалар бўйича норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилиниши		йўқ		
	Вазифа ёки топшириқни бажариш учун ижрочида етарли ваколатлар ва ресурсларнинг мавжуд эмаслиги		йўқ		
	Кечиктириб тартибга солиш		йўқ		
	Манфаатлар тўқнашуви		йўқ		
	Афзалликларнинг асоссиз белгиланиши		йўқ		
	Норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг кучга киришини асоссиз равишда кечиктириш		йўқ		
	Ҳуқуқ ва мажбуриятлар ўртасидаги номутаносибликлар		йўқ		

Маъмурий тартиб-таомиллар билан боғлиқ коррупциявий омиллар	Маъмурий тартиб-таомилларнинг мавжуд эмаслиги ёки тўлиқ эмаслиги		йўқ		
	Белгиланган қоидалардан чиқувчи истисноларни асоссиз ўрнатилиши		йўқ		
	Ортиқча ва асоссиз талабларнинг ўрнатилганлиги		йўқ		
	Вақт чегараларининг аниқ белгиланмаганлиги		йўқ		
	Тўлов миқдорлари аниқ белгиланмаганлиги		йўқ		
	Санкцияларнинг номуаносиблиги		йўқ		
	Чора-тадбирларни амалга оширишнинг молиялаштириш манбалари ноаниқлиги		йўқ		
Назорат билан боғлиқ коррупциявий омиллар	Шикоят қилиш тартибининг мавжуд эмаслиги		йўқ		
	Шаффофлик ва жамоатчилик назоратини таъминлашдаги бўшлиқлар		йўқ		
	Давлат органларининг фаолияти устидан назорат қилишнинг шакллари ва турлари белгиланмаганлиги		йўқ		